

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVASIYALARI VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”  
KAFEDRASI

*Qo‘lyozma huquqida*

UDK:6P2.15.6:33

MAMASIDDIQOV SARDORJON RO‘ZIALI O‘G‘LI  
MASOFAVIY XIZMAT KO‘RSATISHNI TA‘MINLASH ORQALI  
TIJORAT BANKLARNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINI  
AMALGA OSHIRISH

*70310106 – “Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari”*

mutaxassisli bo‘yicha

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**t.f.n., dotsent: A. A. Abidov**

**TOSHKENT-2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

№ 13 -sonli bayonnoma “ 26 ” 04 2023 y.

Kafedra mudiri: Abdullayev M.K.

M. Abdullayev

imzo

22.05.23

sana

Ilmiy rahbar: Abidov. A. A

A. Abidov

imzo

22.05.23

sana

Talaba: Mamasiddiqov.S.R

S.R. Mamasiddiqov

imzo

22.05.23

sana

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrası

mudiri, dots. M.K. Abdullayev M. Abdullayev

“25” 05 2023 yil

Himoya 2023 yil “25” 05 soat 10<sup>00</sup> da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo‘lib o‘tadi.

## ANNOTATSIYA

Bugungi kunda banklarda masofaviy xizmat ko'rsatishda raqamli transformatsiyani amalga oshirishda bank xizmatlarini masofaviy platformasi orqali joriy qilish va ma'lumotlarini qayta ishlash hamda ma'lumtlarni butunligini ta'minlashda matematik va dasturiy ta'minotni ishga tushirishga qaratiladigan internet-banking tizimi olinadi.

Dissertatsiya ishida quyidagi asosiy masalalar hal etiladi: innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari, ularni takomillashtirish hamda samaradorligini oshirishning nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq etish; yangi bank xizmatlarini mamlakatdagi iqtisodiy o'sishga ta'sirining ilmiy-amaliy jihatlari o'rganildi. Shuningdek "xavfsiz bank xizmatlari" bankning nufuzi hisoblanishini inobatga olib, tadqiqotlar jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi aynan bank tizimini takomilashuviga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** internet-banking, mobil-banking, SMS-banking, SHA1, MD5, O'z DSt 1106:2006, Gibrid, KT, Digital Disruption, Default, blokcheyn,

### *Summary*

Today, in the implementation of digital transformation in remote services in banks, an internet banking system is taken, which is focused on the introduction of banking services through a remote platform and the implementation of mathematical and software in data processing and ensuring the integrity of data.

The following main issues are resolved in the thesis work: researching the theoretical and methodological bases of ways of developing innovative banking services, their improvement and increasing their efficiency; scientific and practical aspects of the impact of new banking services on economic growth in the country were studied. Also, taking into account that "safe banking services" are considered the prestige of the bank, the practical application of the scientific and practical

## MUNDARIJA

Annotatsiya. . . . .	3
Mundarija. . . . .	5
Keltirilgan jadvallar ro'yhati. . . . .	6
Keltirilgan rasmlar ro'yhati. . . . .	7
Keltirilgan qisqartmalar. . . . .	8
<b>KIRISH. . . . .</b>	<b>9</b>
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. . . . .	9
Tadqiqot maqsadi va vazifalari. . . . .	10
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari. . . . .	11
Tadqiqot obyekti va predmeti. . . . .	11
Tadqiqotning ilmiy yangiligi. . . . .	11
Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati. . . . .	11
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. . . . .	12
<b>I-BOB. ADABIYOTLAR SHARHI. . . . .</b>	<b>13</b>
1.1 Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi. . . . .	13
1.2 Mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi. . . . .	20
<b>II-BOB. METODOLOGIYA. . . . .</b>	<b>27</b>
2.1 Ma'lumotlarni to'plash jarayoni. . . . .	27
2.2 Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar. . . . .	29
2.3 Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar. . . . .	34
2.4 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi. . . . .	35
2.5 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar. . . . .	37
<b>III-BOB. TAHLIL VA NATIJALAR. . . . .</b>	<b>38</b>
3.1 Masofaviy xizmat ko'rsatishda ma'lumotlarni butunligini ta'minlash . . . . .	38
3.2 Ma'lumotlarni ERI orqali tasdiqlab junatishning avzalliklari. . . . .	50
3.4 Tahlillardan olingan natijalar sharhi . . . . .	53
<b>XULOSA . . . . .</b>	<b>56</b>
Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi. . . . .	56
Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari. . . . .	57
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI. . . . .</b>	<b>59</b>
<b>ILOVALAR. . . . .</b>	<b>62</b>

## **Kirish**

Bank xizmatlarini modernizatsiyalash va soddalashtirish tizimi mamlakat moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, barcha sohalarda bo‘lgani kabi, bank tizimiga ham keng joriy etilgan. Bank tizimida raqamli banklarni rivojlantirish iqtisodiy o‘shishning asosiy masalalaridan biri ekanligi yaqqol yuzaga chiqmoqda. Prezidentimiz bank tizimiga to‘xtalar ekan, “Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalardan foydalanish, yangi bank mahsulotlari va dasturiy ta’minotni joriy etish bo‘yicha zamonaviy talablardan ortda qolmoqda”, deya ta’kidlagan. Bunda biz raqamli bank xizmatlarini ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan masala sifatida tan olishimiz zarur. Muhim masalalardan biri bu foydalanuvchilarning bank tizimiga ishonchini oshiradigan va qulay xizmatlarni taklif etadiga raqamli bank tizimini rivojlantirish hisoblanadi.

### **Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarga muvofiq hamda iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida:

Quyidagilar raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni yanada rivojlantirishning qo‘shimcha vazifalari etib belgilansin:

2023 yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravarga ko‘paytirishni nazarda tutgan holda, shu jumladan ishlab chiqarishni boshqarishda axborot tizimlari kompleksini joriy qilish, moliyaviy-xo‘jalik faoliyatda hisobot yuritishda dasturiy mahsulotlardan keng foydalanish, shuningdek, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali uni jadal shakllantirish;